

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

J.Sultonov

Chingizxon va Jin davlati o'tasidagi diplomatik va harbiy munosabatlarning tarixiy tahlili 224

M.A.Boltaboyev

Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi musulmon bo'limgan aholiga nisbatan olib borgan zo'ravonlik siyosati 234

Sh.B.Jumayeva

Globallashuv davrida boqiy marosim: Toshkent vohasi muqaddas qadamjo va mozorlarida ziyorat 239

M.R.Sodiqova

Ipakchilikning O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'mni (1991-2021-yillar) 244

A.X.Nigmatov

Shanxay hamkorlik tashkiloti vujudga kelishining tarixiy asoslari 251

M.B.Nazirov

Rossiya imperiyasi ko'chirish siyosatining Farg'ona viloyati tub aholisining iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga ta'siri 257

B.N.Rizayev, Б.Н.Ризаев, B.N.Rizaev

A.N.Kasigin islohotlarining O'zbekiston qishloq xo'jaligida joriy etilishi 260

M.A.Maxmudov

XX asrning 20-30-yillarida O'rta Osiyodagi madaniy obidalarni saqlab qolishda sredazkomstarisning faoliyati 266

I.B.Boxodirov

Birinchi jahon urushi yillarda turkiston harbiy okrugida mahalliy qurolli kuchlar va harbiy asirlar masalasi 270

J.Sultonov

Xorazm imperiyasining vujudga kelishi va Muhammad Xorazmshohning Mo'g'ullar bosqiniga qadar olib borgan harbiy-diplomatik strategiyasi 273

O.B.Nizomiddinov

O'zbekiston SSRda lotin yozuvining joriy etilishi: muammo va ziddiyatlar (Farg'ona viloyati misolida) 279

O.H.Jaynarov

O'zbekiston SSR advokaturasi tizimi: islohot va natijalar (XX asr 20-yillari) 284

O.M.Normatov

Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq munosabatlari tarixining ayrim jixatlari xususida 289

Y.A.Shukurillayev

Buxoro amirligida qo'shin qarorgohlarining o'rnatilish taomillari 293

ILMIY AXBOROT

Z.X.Oxunova

Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo sohasidagi liberallashuvni tadqiq etishdagি falsafiy yondashuvlar 297

X.J.Isomiddinov

Jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashda yoshlar tarixiy-falsafiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy jihatlari 300

M.B.Nazirov

Ko'chiruvchilik siyosatining Farg'ona viloyati tub xalqlarining siyosiy, fuqarolik ahvoliga ta'siri 304



UO'K: 338.98

**IPAKCHILIKNING O'ZBEKISTON IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTIDAGI O'RNI
(1991-2021-yillar)**

**РОЛЬ ШЕЛКОВОДСТВА В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКИСТАНА
(1991-2021)**

**THE ROLE OF SERICULTURE IN UZBEKISTAN'S SOCIO-ECONOMIC LIFE
(1991-2021)**

Sodiqova Mahbubaxon Raxmonaliyevna 

Farg'onan davlat universiteti falsafa va milliy g'oya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

O'zbekiston ipakchilik sanoati mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan biridir. Ushbu maqolada O'zbekistonning ipakchilik sanoatining o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish tarixi, ahamiyati va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari tahlil qilingan. O'zbekiston, ipak ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda etakchi o'rinni egallagan davlatlardan biri bo'lib, mamlakatning qishloq xo'jaligi va eksport salohiyatida muhim o'rinn tutadi. Ipakchilik sanoati nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy sohada ham katta ta'sir ko'rsatadi, chunki bu soha minglab oilalar uchun ish o'rirlari yaratadi, qishloq hududlaridagi aholining turmush sharoitlarini yaxshilashga yordam beradi va o'zining madaniy-milliy ahamiyatiga ega. Ushbu izlanishda, ipakchilikning iqtisodiy o'sishi, texnologik yangilanishlar, eksport strategiyalari va ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri, shuningdek, bu sohaning rivojlanishida davlat siyosatining roli ko'rib chiqiladi. Tadqiqot, O'zbekistonning ipakchilik sanoatining kelajakdagi istiqbollarini, global bozorlardagi o'rni va uning ichki iqtisodiyotga qo'shgan hissasini chuqr tahlil qilishni maqsad qiladi.

Аннотация

Шелковая промышленность Узбекистана является одной из важных отраслей экономической и социальной жизни страны. В данной статье были проанализированы особенности, история развития, значение и социально-экономические аспекты шелковой промышленности Узбекистана. Узбекистан является одной из ведущих стран мира по производству шелка и играет важную роль в сельскохозяйственном и экспортном потенциале страны. Шелковая промышленность имеет большое влияние не только в экономическом, но и в социальной сфере, поскольку эта отрасль создает рабочие места для тысяч семей, способствует улучшению условий жизни населения в сельской местности, имеет свое культурное и национальное значение. В этом исследовании рассматриваются экономический рост, технологические инновации, экспортные стратегии и социально-экономическое влияние шелководства, а также роль государственной политики в развитии этой отрасли. Исследование направлено на глубокий анализ будущих перспектив шелковой промышленности Узбекистана, ее места на мировых рынках и ее вклада в отечественную экономику.

Abstract

The silk industry of Uzbekistan is one of the important sectors of the economic and social life of the country. This study analyzed the features, history of development, significance and socio-economic aspects of the silk industry in Uzbekistan. Uzbekistan is one of the world's leading silk producing countries and plays an important role in the country's agricultural and export potential. The silk industry has a great influence not only economically, but also in the social sphere, since this industry creates jobs for thousands of families, helps improve the living conditions of the population in rural areas, and has its own cultural and national significance. This study examines economic growth, technological innovation, export strategies and socio-economic impact of sericulture, and the role of government policy in the development of this industry. The study is aimed at an in-depth analysis of the future prospects of the silk industry in Uzbekistan, its place in world markets and its contribution to the domestic economy.

Kalit so'zlar: Ipakchilik, iqtisodiy hayot, ijtimoiy ta'sir, eksport, qishloq xo'jaligi, ish o'rirlari, sanoat rivojlanishi, texnologik yangilanishlar, davlat siyosati, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy-iqtisodiy tahlil, xorijiy investitsiya, ipak mahsulotlari, iqtisodiy salohiyat.

Ключевые слова: производство шелка, экономическая жизнь, социальное воздействие, экспорт, сельское хозяйство, рабочие места, промышленное развитие, технологические инновации, государственная политика, экономический рост, социально-экономический анализ, иностранные инвестиции, шелковые изделия, экономический потенциал.

Key words: silk production, economic life, social impact, export, agriculture, jobs, industrial development, technological innovation, public policy, economic growth, socio-economic analysis, foreign investment, silk products, economic potential.

TARIX

KIRISH

"Ipakchilik ko'plab mamlakatlar qishloq xo'jaligida asosiy o'rirlardan birini egallaydi"[1]. Tabiiy ipak manbai bo'lgan pilla etishtirish dunyoning turli mintaqalarida joylashgan mamlakatlarda rivoj topgan. Ipakchilik o'zbek xalqining niroyatda qadimiy kasblaridan bo'lib, uning sir-asrорlari hozirgi kungacha avloddan-avlodga o'tib kelmoqda va yillar davomida rivojlanib bormoqda. An'analar va ming yillik tajribalar negizida O'zbekistonda zamonaviy yangi ipakchilik industriyasini yaratish yo'lli belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i pillachilikni izchil rivojlantirish, pilla va ipakchilik korxonalarini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish hamda sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etgan holda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish dollarb vazifalardan biri hisoblanadi"[2] deb ta'kidlab o'tgan.

O'zbekiston mustaqil iqtisodiy siyosatini amalga oshira boshlashi bilan, ipakchilik sohasida ham yangi iqtisodiy munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar va ichki bozorlar o'zgarishlarga yuz tutdi. Ipakchilik sohasidagi tuzilmaviy islohotlar, yangi texnologiyalar va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ipakchilikning rivojlanishi bilan birga, uning ijtimoiy va ekologik ta'sirlari ham dolzarb mavzulardan biri bo'lib qoldi. Ipakchilikning yirik agrar sohaga aylanishi, shuningdek, sohada mehnat qilayotgan aholining ijtimoiy yashash sharoitini yaxshilash kabi masalalar ham o'rganishni talab etadi.

Mamlakatda qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish maqsadida bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Xususan, "sifatli pilla etishtirish va tayyorlash, uni qayta ishslash, xom ipak va ipak kalava ishlab chiqarish bo'yicha yangi quvvatlarni tashkil etish, pillachilik tarmog'i rivojlantirish borasida qabul qilingan dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilishini muvofiqlashtirish, investitsiyaviy va eksport siyosatini izchil yuritish, yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni pillachilik bilan shug'ullanishga qiziqtirish, ularni o'qitish va malakasini oshirish"[3] masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekipaksanoat" uyushmasini tashkil etish chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-2856 sonli qarori tasdiqlangandan so'ng, ipakchilik sohasida o'zgarishlar vujudga keldi.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 24-fevraldagi "Ipakchilik tarmog'i ni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi"[4] PQ-73-sonli qarori, Respublikasi Prezidentining 2024 yil 3-maydagi PF-72-sonli "Pilla etishtirish va ipakchilik sohasida bozor mexanizmlarini joriy qilishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi[5], 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" Farmonlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonda 1991–2021-yillar davomida ipakchilik sohasidagi asosiy muammolarni va masalalarni o'rganishda arxiv hujjatlari birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi. Farg'ona viloyat arxivining 2593-fondi, 64-jig'ma jildida "Pillachilik bo'yicha ishlab chiqarish" hujjatlari, 2593-fondi, 91-jig'ma jildida ipakchilik korxonalarining shtatlar jadvali, 2593-fondi, 35-jig'ma jildida Marg'ilon ipakchilik kombinatida davlat mulkini hususiyashtirish bo'yicha arxiv hujjatlari o'rganildi va tahlil qilindi.

O'zbekistonda ipakchilik tarixini o'rganishda tadqiqotchilardan N.Alimova Rossiya imperiyasi hukmronligi davri va sovet hokimiysi yillarda o'lka ipakchiligi sohasida kechgan o'zgarishlar, transformatsiya jarayoni yoritib bergen. Shuningdek, mustamlakachilik davrida ipakchilik sohasida olib borilgan islohotlar, uning boshqaruvi tizimi, ilmiy asoslarini yaratilishi, ipakning savdo munosabatlardagi o'rni va ahamiyati kabi masalalar tahlil etilgan. Yu.A.Gaybullayeva esa o'zbek ayollarining milliy kiyimlari tarixiga bag'ishlangan ilmiy ishi ipakdan tikilgan milliy libosga xos an'analarining qaytadan rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Respublikada pillachilik tarmog'i rivojlantirish hamda uning iqtisodiy muammolarini o'rganishda mamlakat olimlari tomonidan ko'plab ilmiy ishlar olib borilgan. Bu borada "S.Artikova, R.Israilov, D.T.Muxamedieva, Sh.O'roqov, B.Q. Sharipov, O.S.Jumayev, N.Aliyeva, B.Berdiyev kabi olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar".[6]

Ipakchilik ilm fani rivojlangan ilg'or xorijiy mamlakatlar olimlari M.Ye.Braslavskiy, Chin Ngok Lan, M.Esfandiari, K.P.Arinkumar, Y.Banno, U.M.Akimenko, S.A.Tumyan, V.A.Usenko, Y.Tazima. M.I.Stoskiylar tomonidan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqot jarayonida O'zbekistonda ipakchilik sohasining 1991-2021-yillardagi rivojlanishi, tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash, muammoviy, xronologik hamda fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

AMALIY NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

"Mustaqillikning dastlabki yillarda ipakchilik sanoatininig rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor berildi. Respublika rahbariyati tomonidan ipakchilikni rivojlantirish bo'yicha qator farmonlar va qarorlar qabul qilindi"[7]. Hususan, "1993-yildan boshlab, mamlakatda ipakchilikni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari, keng qamrovli chora-tadbirlar, loyiham ishlab chiqildi. 1994-yilda Farg'ona viloyati Marg'ilon ipakchilik ilmiy ishlab chiqarish birlashmasining yigiruv fabrikasi qoshida "Spining-silk" nomli O'zbek-Italiya qo'shma korxonasi tashkil etildi va 663 ta ish o'rni tashkil etildi".[8] "1998-yil 3-aprelda "Respublika pillachilik sohasini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra mustaqil "O'zbek ipagi" uyushmasi tashkil etildi". Uning tarkibiga ipakli va aralash gazlamalar ishlab chiqaradigan shoyi to'qish korxonalari, shuningdek, tabiiy shoyi ishlab chiqarish va qayta ishlash bo'yicha Marg'ilon shahrida joylashgan "Shoyi" tadqiqot instituti kiritildi. "Institut tarkibida 5 ta ilmiy laboratoriya (pillakashlik, iqtisodiy, me'yoriy izlanishlar, chiqindilarni qayta ishlash, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish, tabiiy tolalarga dastlabki ishlov berish) va ipak mahsulotlarini sertifikatlash"[10] markazi faoliyat ko'rsatdi.[11]

Lekin bu tadbirlar jarayonida muammolar bo'lganligi va ularning joylarda bajarilishi ustidan zaruriy darajadagi monitoring o'rnatilmaganligi, qolaversa ipakchilik sohasi shu jumladan pilla xom ahyosi eishtirish masalalariga joylarda ikkinchi darajali tarmoq sifatida qaralganligi oqibatida kutilgan natijalarga erishilmadi. Bu, o'z navbatida, ipakchilikni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan investitsiyalarni jalb qilishni murakkablashtirdi. Fermerlar va ishlab chiqaruvchilar uchun zarur texnologiya va xom ashyo etishmasligi ishlab chiqarishning pasayishiga olib keldi. Ko'plab qishloq xo'jaligi inshootlari va ishlab chiqarish quvvatlari eskirdi va zamonaviy texnologiyalarga ehtiyoj paydo bo'ldi. Lekin yangi infratuzilmani yaratish uchun zarur moliyaviy resurslar yo'qligi ishlab chiqarish samaradorligini kamaytirdi. Ipakchilikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan tajribali ishchilar va texnik mutaxassislar soni kam edi. Bundan tashqari ipakchilik sohasida pilla etishtirish mavsumiy ish hisoblanib, qishloq joylarda asosiy ishchi kuchi ayollar va bolalarni tashkil etdi. Bu, ayniqsa, "ayollar va bolalar uchun og'ir edi, chunki ular ko'pincha quyi ishlar, ipak qurti boqish, ipak ipi o'rash va boshqa ishlab chiqarish jarayonlarida ishlashar edi. 1995-1996-yillarda viloyat ipakchilik korxonalari ishchilarini 100-150 so'm oylik maosh olar edi".[12] Ish haqining pastligi va mehnat sharoitlarining yomonlashuvi qishloq aholisi uchun ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi.

"2002-yilda Respublikada 21500 tonna tirik pilla, 8290,2 tonna quruq pilla, 415 ming quti ipak qurti tuxumi tayyorlandi, 1003,2 tonna xom ipak, 130 tonna yigirilgan ipak ipi ishlab chiqarildi, 1,5 million dona tut ko'chati etishtirildi. Tarmoqda 19 mingga yaqin xodimlar band etildi. 2000-yillarda Farg'ona viloyatining Yozyavon, Beshariq, Farg'ona, O'zbekiston, Dang'ara, Bag'dod, So'x, Uchko'prik, Toshloq tumanlarida pillani qayta ishlash korxonalari tashkil etildi. 2017-2021-yillarda korxonalarda 61,3 ming ish o'rini yaratildi. Shundan 2433 ta doimiy ishchilar, 58,9 ming ta mavsumiy ishchilarni tashkil etdi. Bundan tashqari Farg'ona viloyatida "Nurli Tong silk" MJCH",[13] "Vodiyl Marjoni" MCHJ, "Vodiyl ipak yigiruv" MCHJ, "Sharq ipagi Durdonasi" MCHJ, "Toshloq silk" MCHJ, "Dang'ara ipagi" MCHJ, "Beshariq ipagi" MCHJ pillani qayta ishlash korxonalari taskil etildi.

"Farg'ona viloyatining Mar'ilon shahrida joylashgan "Yodgorlik"-O'zbekistondagi eng yirik ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish fabrikasi hisoblanadi. Korxona 1972-yil qurilgan, 2000-yilda xususiylashtirilgan va "Yodgorlik" MCHJga aylantirildi".[14] "Yodgorlik" fabrikasi 1991-yil O'zbekistonda ilk milliy matolar ko'rgazmasini tashkil etdi. Ko'p sonli integratsiyalar"[15] natijasida "Yodgorlik" Marg'ilonda o'ziga xos turizm markaziga aylandi va bu, o'z navbatida, hududda hunarmandlik va to'qimachilik biznesining taraqqiy etishiga imkon yaratdi".[16]

"Namangan viloyatida mavjud yakka qator tut daraxtlari 7265,2 ming tup va 2858 ga tutzorlar maydonini tashkil etadi. Shundan 2019 yil kuz va 2020 yil bahor oylarida ekilgan tut ko'chat soni: – yakka qator tut daraxtlari – 3662,2 ming tup; – yangidan barpo etilgan tutzor – 6,5 ga; 2019 yilda 27 ming 300 quti ipak qurti parvarishlanib, 1 ming 508 tonna (100,5 foiz) tirik pilla etishtirilgan. 2020 yilda 32 000 quti ipak qurti parvarishlandi, 1 760 tonna pilla etishtirildi".[19]

TARIX

"Namangan viloyatida 5 ta ("Golden silk" ShK, "Verigrov ipagi" XK MChJ, "Marjon tola fayz" MChJ, "Fabriktex" MChJ, "Sof ipak invest" MChJ) pillani qayta ishlash korxonalari tashkil etildi." [18] "57,5 ming ta ish o'rnlari yaratildi (shundan 2 408 ta doimiy 55,1 ming ta mavsumiy)." [19]

"2006-yilda ipakchilik sohasida kasanachikka" [20] alohida e'tibor qaratildi. [21] Respublika qishloq joylardagi ish bilan band bo'limgan aholini uyda mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish ishlarini bajarishga jalb etish uchun ish beruvchilarga aniq rag'batlar yaratish muhim vazifa qilib belgilandi.

"2006-2010-yillarda mamlakat korxonalari bilan fuqarolar o'rtasida tuzilgan kasanachilik va ijara shartnomalari asosida 674 mingta yangi ish o'rnlari tashkil etildi." [22]

Respublika ipakchilik va kasanachilikni rivojlantirish markazi va galereyasi tashkil qilindi. Markazda ipakchilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi hunarmand va kasanachilarini qullab-quvvatlash, xotin-qizlar, nogironlarni ish bilan ta'minlash, bitiruvchi yosh hunarmandlar tadbirkorligiga ko'maklashish, mahalliy xomashyodan eksportbop matolar ishlab chiqarish asoslarini o'rgatish ishlari olib borildi. 2006-2007-yillarda 7 ta ustaxona mavjud edi. 2019-yilga kelib bu ustaxonalar soni 11 taga etdi. Milliy hunarmandchilik galereyasi va hunarmandchilik o'quv markazi ham tashkil etildi. Marg'ilon, Farg'ona shaharlari, Toshloq va Rishton tumanlaridan 400 nafar xotin-qizlar va yoshlar turli hunar sirlarini qunt bilan o'rganishdi. 2019-yilda markaz tomonidan 14,5 million dollarlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Respublikada 2009-2011-yillar davomida pillachilik tarmog'ining qishloq xo'jaligida tutgan o'rni keskin pasaydi. Bunga bir qancha omillar sabab bo'ldi. Jumladan, pilla etishtirish jarayonida pilla urug'larining serhosil va kasallikka kam chalinadigan navlari bilan to'liq ta'minlanmadni, tutzorlar keskin kamayib ketdi. Bundan tashqari pilla etishtirish, uning sifatini yaxshilash va ipak ishlab chiqarishdagi texnikalar eskirib qolgan edi. Tayyor pilla hosillarini saqlash, tashish va qayta ishlashda maxsus texnika va texnologiyalar joriy etishda sohada kamchiliklar mavjud edi. Sanoatda pillani qayta ishlash darajasi tushib ketdi. Tarmoqning boshqaruvi tizimida ham etarlicha kamchilik va muammolar vujudga keldi. Ipakchilik sanoatida ipakning narxi tushib ketganligi sababli asosiy ishchi kuchi ayollarni tashkil etgardi. Bundan tashqari ipak etishtirish mavsumiy ish bo'lganligi sababli asosan ishchilar yilning faqat bir qismida ishlashardi va bu davrda ularning daromadi sezilarli darajada o'sardi. Mavsumiy ishlar, asosan, bahor va yoz oylarida intensiv ravishda amalga oshirilardi, chunki ipak qurti o'zining rivojlanish davrini aynan shu vaqtarda o'tkazardi. Shuning uchun, mavsum davomida ishlab chiqarish jarayonlari kuchayardi. Ipak etishtirish bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlab chiqarish tizimi va resurslar faollashardi.

"Muammolarni xal qilish maqsadadida 2011-2015-yillarga mo'ljallangan tarmoq investitsion dasturi qabul qilindi. Investitsion dasturda zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida yangi ipakchilik korxonalarini barpo etish, korxonalarni modernizatsiya qilish va qayta jihozlashni amalga oshirish ko'zda tutilgan edi." [23]


"2016-2020-yillarda ipak matolarini ishlab chiqarish 1,9 mln.kv.m.dan 7,8 mln kv.m.gacha ortdi. Ipak gazlamalar ishlab chiqarish hajmi asosan kichik korxonalar va hunarmandlar hissasiga to'g'ri keldi. Natijada ipak xomashyosini mamlakatda qayta ishlash ulushi 25 foizdan oshmadni, qolgan qismi esa eksportga sotildi". [24]

"Mamlakatda iqtisodiyotni diversifikatsiyalash" [25] sharoitida "pillachilik tarmog'ini samaradorligini oshirish, ipakchilik sanoatini iqtisodiy rivojlantirish bugungi kungi dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Xususan, pillachilik tarmog'i rivojlanishi uchun sohada uzuksiz ravishda innovatsion yondashuvga yo'naltirilgan siyosatni olib borish, uni izchil joriy etish choratadbirlarini va innovatsiya asosida texnik-texnologik jihatdan modernizatsiyalash yo'nalishlarini ishlab chiqish, pillachilik tarmog'idagi korxonalar faoliyatini samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi." [26]

"Mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Vatanimizni dunyoning ilg'or davlatlari qatoridan joy olishining yo'li-bu agrar sohada, ilm-fanda, ta'lim tizimida va boshqa sohalarda klaster tizimlarining joriy etilishi hisoblanadi." -deb ta'kidlagan." [27]

"2017-yildan O'zbekistonda ipakchilik sohasida klaster tizimi joriy etildi. Jumladan, 74 ta pilla-ipakchilik klasteri va 11 ta urug'chilik korxonasi tashkil qilindi. Tut maydonlari 40 ming gettardan 55 ming gettarga kengaydi. Bularning natijasida respublikada pilla etishtirish hajmi 2,5 barobar, ipak mahsuloti eksporti 3 barobar ko'paydi," [28] "25 mingga yaqin ish o'rni yaratildi." [29]

"2017-2022-yillarda O'zbekistonda ipakchilik tarmog'ida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, yangi korxonalar qurish va mavjudalarini modernizatsiyalash"[30], jahon bozorida xaridorgir va raqobatdosh tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va ularning turlarini ko'paytirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi.[31]



"2019-2020 yillarda ipakchilik yo'nalishida investitsiya dasturiga asosan 123 ta loyiha doirasida 163,4 million dollarlik mablag', shu jumladan, 10,4 million dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilingan."[32]

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni"[33] da "ipak mahsulotlari eksportini 95 mln AQSh dollariga etkazish"strategik vazifa sifatida belgilangan."[34]

XULOSA

1991-2021-yillar davomida O'zbekiston ipakchilik sanoati mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida tarixiy jihatdan muhim o'rinn tutdi. Sovet Ittifoqi tarkibida bo'lgan davrda O'zbekiston ipak etishtirish va ishlov berish bo'yicha etakchi mamlakatlardan biri sifatida tanilgan. Mustaqillikni qo'iga kiritgach, O'zbekiston o'zining iqtisodiy va ijtimoiy tizimini tubdan o'zgartirishga kirishdi. Ipakchilik sohasida ham bir qator o'zgarishlar yuz berdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarda, 1990-yillarning boshida, O'zbekiston ipakchilik sanoatining katta qismini Sovet Ittifoqi bilan savdo va iqtisodiy aloqalar tashkil etgan edi. Sovet tizimining qulashidan so'ng, O'zbekiston o'zining yangi iqtisodiy modelini yaratishga harakat qildi. Shu davrda, O'zbekistonning ipakchilik sanoati ham ko'plab qiyinchiliklarga duch keldi: eski infrastrukturani modernizatsiya qilish, yangi bozorlar izlash, ishlab chiqarishni raqobatbardosh qilish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish zarurati yuzaga keldi.

O'zbekiston hukumati 2000-yillardan boshlab ipakchilik sanoatini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, eksportni rag'batlantirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan siyosatni amalga oshirdi. Bu davrda davlatning ip shaklida texnologiyalarni joriy qilish va paxta-terim sanoatida yangilanishlar, shuningdek, ipak eksportining rivoji sanoatni yangilashda muhim rol o'ynadi. Ipakchilikning ijtimoiy ta'siri ham o'zgarib, qishloq hududlarida yangi ish o'rinalarini yaratish, qishloq aholisi uchun barqaror daromad manbalarini ta'minlashda o'zgacha ahamiyatga ega bo'ldi.

2010-yillar oxiridan boshlab O'zbekiston ipakchilik sanoatini global bozorlarga integratsiyalashuv, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish, va paxta va ipak mahsulotlarini eksport qilishni kengaytirish bo'yicha jiddiy harakatlarni boshladi. Bu jarayon, 1990-yillar oxirida boshlangan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning natijasi bo'lib, mamlakatni xalqaro bozorlar bilan yanada mustahkam aloqalar o'rnatishga olib keldi.

TARIX

Shunday qilib, tarixiy nuqtai nazardan qaraganda, 1991-2021-yillar davomida O'zbekistonning ipakchilik sohasida yuz bergan o'zgarishlar, mustaqillik davrida amalga oshirilgan islohotlar, texnologik yangilanishlar va davlat siyosatining ta'siri orqali mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining ajralmas qismi bo'lib qolgan. Ipakchilik sanoati mamlakatning qishloq hududlaridagi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ish o'rinnari yaratish va global bozorga chiqishda ham muhim rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 Н.Сотвoldиев "Ипак Курти Боқиша Инфекцион Касалликларни Олдини Олиш Тадбирлари."
2. Qishloq va suv xo'jaligida davlat-xususiy sherikchiligin rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va amalga oshirish mexanizmlari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanı R.Istroilov "Mamlakatimizda pillachilik tarmog'ida klaster tizimini tashkil etishning zarurligi" Toshkent - 2019 yil, 1-2 may.167-bet.
3. "Qishloq xo'jaligi sohasida ipakchilik yo'nalishi" https://edcom.uz/uz/news/news_22-08-2023-1
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 24-fevraldag'i "Ipakchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-73-sonli qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 03.05.2024 yildagi PF-72-son "Pilla etishtirish va ipakchilik sohasida bozor mexanizmlarini joriy qilishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
6. Артикова С. Формирование и повышение эффективности регионального подкомплекса шелк АПК в Узбекистане в условиях перехода рыночным отношениям. и.ф.д., дисс. -Т.1991.;
- Р.Истроилов.Повышение материальной заинтересованности работников шелководства. и.ф.н.,дисс.автореферат. - Т.1991.Б-24.; Мухамедиева Д.Т.Прогнозирование развития производства и переработки продукции шелководства и.ф.н.,дисс.автореферат. - Т. 1995.Б-28.;
7. O'goqov Sh. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pillachilik tarmogi rivojlanish istiqbollarini belgilash. i.f.n.diss.-T.2005. B-14.; Sharipov B.Q. Tadbirkorlik faoliyatida xo'jalik yuritish shakllarini diversifikasiyalash imkoniyatlardan foydalanish. 08.00.15- Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.Toshkent- 2020.-B.160.; N.Aliyeva . Innovatsion menejment usullari asosida pillachilik tarmog'ini boshqarishni takomillashtirish iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 2022-yil.; B.Berdiyev. Ipakchilik korxonalarida brend strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 2024-yil.
8. 1993-yil 10-iyuldag'i "O'zbekiston Respublikasida ipakchilik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi president farmoni.
9. FVDA 2593-fond, 1-ro'yxat, 36-yig'ma jild. 200-varoq.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 30-martdag'i «Respublikada pillachilik sohasini boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 3-apreldagi «Respublika pillachilik sohasini boshqarishni takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi qarori.
11. Sertifikatlash-Biron-bir mahsulot yoki xizmat sifat tavasining sifat standartida talab etilgan darajaga mos kelishini aniqlash, tasdiqlash. <https://uz.wiktionary.org/wiki/sertifikatlash>
12. https://uzpedia.uz/pedia/ozbekiston_shoyi_ilmiy_tadqiqot_instituti_9
13. Marg'ilon shahar Yodgorlik" korxonasi ishchi hodimi A.Toshtemirov bilan olib borilgan shaxsiy suhbat materiallari.
14. "Mas'uliyyati cheklangan jamiyat" (qisqartmasi: MChJ) xo'jalik shirkatining bir bo'lib, uning mulki (kapitali) muassislar orasida tegishli nizomlarda ko'rsatilganidek taqsimlanadi." https://uz.wikipedia.org/wiki/Mas%CA%BCuliyati_cheklangan_jamiyat
15. <https://tbcbank.uz/ru/blog/21/shyolkovaya-fabrika-yodgorlik-ili-ostrovok-proshlogo-v-nastoyashem>
16. Integratsiya (lotincha integratio — tiklash, to'ldirish, integer — butun so'zidan)— bu suveren davlatlar o'rtaida tovarlar, xizmatlar,moliya, investitsiya,ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kengliknii tashkil qilish maqsadida birlashish jarayoni. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Integratsiya>
17. <https://tbcbank.uz/ru/blog/21/shyolkovaya-fabrika-yodgorlik-ili-ostrovok-proshlogo-v-nastoyashem>
18. <https://uzbekipaksanoat.uz/uz/tizimdagi-tashkilotlar/namagan/>
19. <https://uzbekipaksanoat.uz/uz/tizimdagi-tashkilotlar/namagan/>
20. <https://uzbekipaksanoat.uz/uz/tizimdagi-tashkilotlar/namagan/>
21. Kasanachilik — hunarmandlarning mehnat shartnomalari asosida yollanib o'z uyida ishlashi, yashash joyida ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish. <https://izoh.uz/>
22. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Йирик саноат корхоналари билан касаначиликни ривожлантириш асосидаги ишлаб чиқариш ва хизматлар ўртасида кооперативни кенгайтириши рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2006 йил 5 январдаги ПФ-3706-сон Фармони.
23. https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/1535/14037/653df383d19ea__MyFile.pdf
24. 2010-yil 15-dekabrda qabul qilingan «2011-2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi Qarori.
25. " Развитие шелковой отрасли Узбекистана в последние годы в ракурсе трендов мирового рынка шелка." Асадулла Каюмов Журнал «Экономическое обозрение» №11 (263) 2021<https://review.uz/post/konyunktura-uzbekskogo-shelka>
26. Diversifikatsiya (lot. diversifi catio — o'zgarish, xilma-xil taraqqiyot) — korxona (birlashma)larning faoliyati sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi.

27. Бакирова Дурдона Қаюм қизи "Республикамизда пилла ишлаб чиқаришнинг асосий иқтисодий кўрсаткичлари" "Zamonaviy dunyoda ilm fan va texnologiya" ilmiy amaliy konferensiya "Zamonaviy dunyoda ilm fan va texnologiya" ilmiy amaliy konferensiya

28. <https://old.tiame.uz/oz/article/19-11-2018>. Klaster tizimining katta imkoniyatlari

29. <https://bugun.uz/ozbekistonda-ipakchilik-tarmogida-klaster-tizimi-zhorij-etildi>. 01.06.2024-yil.

30. <https://old.tiame.uz/oz/article/19-11-2018>. Klaster tizimining katta imkoniyatlari.

31. Modernizatsiyalash- (fransuzchadan moderne — „eng yangi“, „zamonaviy“) — biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish. <https://izoh.uz/>

32. O.Jumayev. Ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. 2024-yil. 5 bet.

33. https://uza.uz/oz/posts/ipakchilik-va-jun-sanoatini-rivojlantrish-bilan-bogliq-muammolar_295505

34. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni.